

TALABALARNING BILIMLARINI BAHOLASH BO‘YICHA KIRITERIYALAR

¹Turonov Dostonbek Murodqobulovich

¹O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistri

²Ilmiy rahbar: dotsent ²Arziqulov Abdixoliq Ulashevich

dostonbekturonov.edu@gmail.com

Annotatsiya: talabalar bilimini baholash ta’lim muassasalarida muhim ahamiyatga ega, chunki bu narsa o‘qitish amaliyotini boshqaradi va o‘quvchilar natijalarini oshiradi. Ushbu maqolada o‘quvchilarning fan mazmunini tushunishi va o‘zlashtirishini baholashning keng qamrovli mezonlari ko‘rsatilgan. Mezon kognitiv, affektiv sohalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mezonlarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni baholashga yanada yaxlit yondashuvni ta’minlashi, tanqidiy fikrlash va chuqurroq o‘rganishni rivojlantirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: talabalarni baholash, bilimlarni baholash, ta’lim mezonlari.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

¹Турунов Достонбек Муродкобулович

¹Магистр Узбекско-Финский педагогического института

**²Научный руководитель: доцент ²Арзикулов Абдихолик
Уласhevich**

dostonbekturonov.edu@gmail.com

Аннотация: оценка успеваемости учащихся важна в образовательных учреждениях, поскольку она определяет методы преподавания и улучшает результаты учащихся. В данной статье излагаются комплексные критерии оценки понимания и усвоения учащимися содержания предмета. Критерий включает когнитивную и аффективную сферы. Внедряя эти критерии, учителя могут обеспечить более целостный

подход к оценке учащихся, способствуя развитию критического мышления и более глубокому обучению.

Ключевые слова: *оценка знаний учащихся, оценка знаний, образовательные критерии.*

CRITERIA FOR ASSESSING STUDENTS' KNOWLEDGE

¹**Turonov Dostonbek Murodkobulovich**

¹Master's degree student of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

²**Scientific supervisor: Associate Professor ²Arziqulov Abdikholiq Ulashevich**

dostonbekturonov.edu@gmail.com

Abstract: *assessment of students' knowledge is important in educational institutions, as it guides teaching practice and increases student results. This article presents a comprehensive set of criteria for assessing students' understanding and mastery of subject content. The criteria include cognitive, affective areas. By implementing these criteria, teachers can provide a more holistic approach to assessing students, develop critical thinking and deeper learning.*

Keywords: *student assessment, knowledge assessment, educational criteria.*

KIRISH

Zamonaviy ta'limda samarali baholash usullariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Turli xil ta'lim muhiti va talaba ehtiyojlari bilan o'qituvchilarga nafaqat akademik natijalarni, balki o'quvchilar erishayotgan tushuncha chuqurligini ham baholash vazifasi yuklanadi. An'anaviy baholashlar ko'pincha faqat yodlash va eslab o'rganishga qaratilgan, bu esa o'quvchining haqiqiy

imkoniyatlarini to'g'ri aks ettirmasligi mumkin. Ushbu maqola talabalar bilimini baholashning mustahkam mezonlarini taqdim etishga, ularning o'quv jarayonlari va natijalarini yanada nozikroq tushunishga yordam berishga qaratilgan. Talabalar bilimining turli o'lchovlarini - kognitiv, affektiv va psixomotor - o'rganish orqali o'qituvchilar ta'lim maqsadlari va talabalar ehtiyojlariga mos keladigan baholash strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

ASOSIY QISM

O'quvchilarni rag'batlantirish ularning o'z yutuqlarini his qilishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun yanada ko'proq harakat qilish istagini tuyishlariga ta'sir ko'rsatadi. Rag'batlantirish o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi; bilim olishga, o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Bu natijalar o'quvchining kelajakdagi o'qish rejalariga stimul beradi. O'quvchilarning o'z-o'zini va bir-birini baholashlari ham individual va jamoaviy ta'sir kuchiga ega. O'quv topshiriqlari orqali bir-birini baholashni tashkil qilsak, alohida savol va topshiriqlarni bajarishlari, guruhli ish jarayonida o'z-o'zini baholash imkoniyati yaratiladi.¹ O'z-o'zini baholashda "Assisment" metodidan foydalanish mumkin. O'quvchilarning bilimini baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'quvchilarni rivojlantirish, o'qituvchilarga o'z faoliyatini tahlil qilish va ta'lim tizimini takomillashtirish imkoniyatini ham beradi. Baholashning samarali usullari o'quvchilar yanada yaxshi o'qishlariga turtki bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Demak, baholash o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uning yordamida ta'lim jarayonida yo'l qo'yilgan

¹ Зеер, Э. Ф., & Югова, Е. А. (2014). Критерии и показатели оценки здоровьесберегающей компетентности студентов. Педагогическое образование в России, (10), 78-82.
SJIF:5.219

kamchiliklarni tuzatish, uning natijalarini yaxshilash hamda o'quvchini rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali aniqlanadi. Joriy baholash maxsus fanlarning amaliy mashg'ulot, seminar va laboratoriya ishlari jarayonida semestr davomida guruh jurnaliga qayd etib boriladi va yig'indisi chiqarilib, o'rtacha bahosi chiqariladi. Oraliq baholash ma'ruza darslari natijasida qo'yiladi. Yakuniy nazorat semestr yakunlangach o'tkaziladi va barcha fanlar bo'yicha talabalar bilimi baholanadi. So'nggi vaqtlarda talabalar bilimini baholashning innovasion shakllari joriy qilinmoqda. Shunday baholash turlaridan biri assesment deb ataladi. "Assesment" texnologiyasi (ingl. "assesment" – "baho", "baholash") – ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami. Ko'p holatlarda bu texnologiya biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolly hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Texnologiya, asosan, quyidagi maqsadga xizmat qiladi:

- 1) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama xolis baholash;
- 2) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- 3) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.²

² Гречухина, Т. И., Меренков, А. В., Куньшиков, С. В., Вороткова, И. Ю., & Усачева, А. В. (2016). Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки: учебно-методическое пособие. SJIF:5.219

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o'tgan asrning 30-40-yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o'rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofiserlarni tanlash maqsadida qo'llanilgan. Keyinchalik ushbu texnologiya tadbirkorlik sohasiga ham samarali tadbiriq etildi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'limda innovatsiya, yanada aniqrog'i, pedagogik hamda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, globallashuv hamda jamiyatning axborotlashuvi ta'lim jarayonini noan'anaviy shakllarda samarali metod va vositalarni qo'llashni taqozo etish bilan birga, o'quv materiallarini shakllantirish va ulardan amalda foydalanishga nisbatan ham innovasion yondashishni taqozo etmoqda. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik tizimning ichki tuzilishini o'zgartiradi. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining pedagogik yoki ta'lim innovatsiyalaridan samarali, faol foydalana olishlari muayyan jarayonda kechadi. Pedagoglarning kasbiy faoliyatga innovasion yondasha olishlari ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlash bilan birga ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, o'quvchi talabalarda bilish faolligini kuchaytirishga yordam beradi.³

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar bilimini baholashning izchil mezonlarini belgilash samarali o'rganishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga

³ Чибыева, Л. Г., & Дайбанырова, Л. В. (2017). Разработка критериев оценки практических умений и теоретических знаний по курсу пропедевтики внутренних болезней. Вестник северо-восточного федерального университета им. М.К. Аммосова. Серия: медицинские науки, (1 (6)), 75-82.

ega. Taklif etilayotgan tizim o'qituvchilarni an'anaviy test usullaridan tashqariga qarashga undaydi, bu esa o'quvchilarning tushunishini yanada kengroq baholash imkonini beradi. Kognitiv, affektiv va psixomotor o'lchovlarni baholash amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar yanada haqiqiy o'rganish tajribasini rivojlantirishlari mumkin. Bu nafaqat talabalarga o'z bilimlarini namoyish etishda foyda keltiradi, balki ularni sinfdan tashqari muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ham ta'minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Зеер, Э. Ф., & Югова, Е. А. (2014). Критерии и показатели оценки здоровьесберегающей компетентности студентов. Педагогическое образование в России, (10), 78-82.
2. Гречухина, Т. И., Меренков, А. В., Куньщиков, С. В., Вороткова, И. Ю., & Усачева, А. В. (2016). Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки: учебно-методическое пособие.
3. Чибыева, Л. Г., & Дайбанырова, Л. В. (2017). Разработка критериев оценки практических умений и теоретических знаний по курсу пропедевтики внутренних болезней. Вестник северо-восточного федерального университета им. МК Аммосова. Серия: медицинские науки, (1 (6)), 75-82.